

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QARINDOSHLIK TERMINLARI ORQALI IFODALANGAN UMUMINSONIY QADRIYATLARI

Rahmatov Bekzod O'ktamovich

O'zDJTU 1- ingliz Umumiy Tilshunoslik kafedrası

Annotatsiya. Qarindoshlik terminlari har qanday tilning eng qadimiy va barqaror leksik qatlamlaridan biri sifatida oilaviy munosabatlarni ifodalashdan tashqari jamiyatning asosiy qadriyatlarini, axloqiy me'yorlarini va madaniy ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ingliz va o'zbek tillarida qarindoshlik terminlari orqali ifodalangan umuminsoniy qadriyatlar milliy xususiyatlar bilan uyg'unlashgan holda keng ko'lamda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Leksik qatlamlar, axloqiy tamoyillar, leksik-semantik tizim, umuminsoniy qadriyat, kollektiv iyerarxiya, himoya va g'amxo'rlik qadriyati, sir, ma'am termini, ochiq oila, saxiy xonadon, oilaviy ziyofat, love, affection, care, breadwinner, supporter, caretaker, nurturer.

Annotation. Kinship terms, as one of the oldest and most stable lexical layers of any language, embody not only family relationships but also the fundamental values, moral norms, and cultural indicators of society. In English and Uzbek, universal human values expressed through kinship terms are widely manifested in harmony with national characteristics.

Keywords: Lexical layers, moral principles, lexical-semantic system, universal human values, collective hierarchy, value of protection and care, secret, the term ma'am, open family, generous household, family feast, love, affection, care, breadwinner, supporter, caretaker, nurturer.

Аннотация. Термины родства, являясь одним из древнейших и наиболее устойчивых лексических пластов любого языка, воплощают в себе не только семейные отношения, но и основные ценности общества, его этические нормы и культурные показатели. В английском и узбекском языках общечеловеческие ценности, выраженные через термины родства, широко проявляются в гармонии с национальными особенностями.

Ключевые слова: Лексические пласты, этические принципы, лексико-семантическая система, общечеловеческая ценность, коллективная иерархия, ценность защиты и заботы, тайна, термин маам, открытая семья, щедрый дом, семейный пир, любовь, привязанность, забота, кормилец, сторонник, опекун, воспитатель.

Umuminsoniy qadriyatlar deganda biz barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan, madaniyat va millat farqi qilmay e'tirof etiladigan axloqiy tamoyillar va hayotiy me'yorlarni tushunishimiz lozim. Bu qadriyatlar oila institutining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yuzaga kelib, qarindoshlik terminlari orqali tilning leksik-semantik tizimida mustahkam o'rin olgan. Qadriyatlar insonning xulq-atvori, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Umuminsoniy qadriyatlar qatoriga hayot va salomatlik qadriyati, oila va qarindoshlik qadriyati, hurmat va karomat qadriyati, adolat va tenglik qadriyati, mehr-muhabbat va rahmdillik qadriyati kabilar kiradi.

Ingliz tilida qarindoshlik terminlari umuminsoniy qadriyatlarning keng ko'lamini o'zida aks ettiradi. Mehr-muhabbat va rahmdillik qadriyatlari ingliz tilida *love, affection, care* kabi asosiy terminlar orqali ifodalansa-da, qarindoshlik terminlarida bu qadriyatlar ko'proq norasmiy va yaqinlik shakllarida namoyon bo'ladi. *Mom, mommy, dad, daddy* terminlari rasmiy *mother* va *father* so'zlariga nisbatan yuqori darajadagi mehri va yaqinlikni bildiradi. *Mommy* va *daddy* ayniqsa bolalar va yoshi kattalar orasida qo'llanilib, himoya va mehr-muhabbat hissini kuchaytiradi. *Beloved, dear, honey, sweetheart* kabi murojaat shakllari oila a'zolari orasida qo'llanib, mehri yanada chuqurlashtiradi. Biroq ingliz tilida o'zbek tilidagi *jon* qo'shimchasiga o'xshash universal mexanizm mavjud emas, buning o'rniga turli kontekstual murojaat shakllari ishlatiladi. *Darling mother, beloved father* kabi iboralar mavjud bo'lsa-da, ular kundalik nutqda kam qo'llaniladi.

Grandfather, grandmother so'zlari o'zida hurmat unsurini o'z ichiga olsa-da, ularning *grandpa, grandma, granny* kabi qisqartirilgan shakllari ko'proq mehr va yaqinlikni bildiradi. Ingliz tilida hurmat qadriyati individual ko'rinishda namoyon bo'lib, kollektiv iyerarxiya tushunchasi zaif ifodalangan. *Patriarch, matriarch* terminlari oila boshliqlari uchun ishlatilsa-da, ular ko'proq tarixiy yoki rasmiy kontekstlarda qo'llaniladi va kundalik oilaviy munosabatlarda kam uchraydi. Bu qadriyat ingliz tilida o'zbek tilidagiga nisbatan ko'proq individual tanlovga asoslangan.

Himoya va g'amxo'rlik qadriyati ingliz tilida *guardian, protector, caregiver, provider* kabi aniq terminlar orqali ifodalanadi. *Guardian* so'zi rasmiy himoyagarlik funksiyasini bildirsa, *protector* va *caregiver* ko'proq hissiy va amaliy g'amxo'rlikni anglatadi. *Father figure, mother figure* terminlari biologik ota-ona bo'lmagan shaxslarning himoyachi rolini ifodalaydi.

Breadwinner termini oilani moddiy jihatdan ta'minlash mas'uliyatini bildiradi va ingliz tilida himoya qadriyatining asosan moddiy tomonini ta'kidlaydi. *Provider* so'zi ham xuddi shunday ma'noni anglatadi. *Supporter* termini nafaqat moddiy, balki ma'naviy qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi.

Ingliz tilida himoya qadriyati ko'proq individual mas'uliyat va professional sifatda qaraladi, o'zbek tilidagi kabi tabiiy majburiyat sifatida emas. *Caretaker, nurturer* kabi terminlar ayniqsa ayollar bilan bog'liq bo'lib, gender rollarini aks ettiradi, ammo bu tendensiya zamonaviy ingliz tilida o'zgarib borayotganligi kuzatiladi.

O'zbek tilidagi qarindoshlik terminlarida umuminsoniy qadriyatlar ingliz tilidagiga nisbatan boshqacha shakllarda namoyon bo'ladi va ba'zi jihatlardan farqli semantik yuksalish darajalariga ega. o'zbek tilida ham qarindoshlik terminlari qadriyatlarning barchasini o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, *ona* so'zi nafaqat biologik aloqani bildiradi, balki mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, fidokorlik, donolik kabi bir qancha qadriyatlarni ham ifodalaydi.

Mehr-muhabbat va rahmdillik umuminsoniy qadriyatlarning eng muhim qismidir. Bu qadriyatlar oila institutining poydevori bo'lib, qarindoshlik terminlarida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. o'zbek tilida *ona* so'zi o'zida cheksiz mehr, g'amxo'rlik va fidokorlikni mujassamlashtiradi. *Onajon* shaklida *jon* qo'shimchasi bilan hosil qilingan shakl mehri ayniqsa chuqur ifodalaydi, bu erda *jon* – hayotning eng qimmatli qismi ma'nosini beradi. Xuddi shunday, *ota* va *otajon* terminlari ham otalik mehr va himoyagarlik qadriyatlarini namoyon qiladi. Bu terminlarda mavjud bo'lgan *jon* qo'shimchasi o'zbek tilidagi mehr-muhabbat ifodasi uchun xosdir.

Azirim, asalim, jonim kabi murojaat shakllari qarindoshlik terminlari bilan birga qo'llanib, mehri yanada kuchaytiradi. Bu shakllar nafaqat biologik qarindoshlikni, balki ruhiy yaqinlikni ham ifodalaydi. *Bolam, farzandim* terminlari yoshiga qaramay farzandlarga nisbatan qo'llanib, doimiy g'amxo'rlik va mehr kafolatini bildiradi. Bunday terminologik boylik o'zbek oilasida mehr-muhabbat qadriyatining chuqur ildiz otganligidan dalolat beradi.

Mehr-muhabbat qadriyati o'zbek qarindoshlik terminlarida ba'zan majburiy xarakter ham kasb etishi mumkin. *Onajon, otajon* kabi so'zlar farzanddan so'zsiz itoatkorlik talab qiladi, zero hurmat va izzat qadriyati o'zbek qarindoshlik terminlarining asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu qadriyat avvalo yosh va qarindoshlik darajasiga bo'lgan hurmatda namoyon bo'ladi. *Aka, opa* terminlari nafaqat biologik aka-uka, opa-singil munosabatlarini bildiradi, balki yoshga bo'lgan hurmat va e'tiborni ham ifodalaydi. Bu terminlar qarindosh bo'lmagan kishilarga ham hurmat belgisi sifatida qo'llanilishi ularning qadriyat xarakterini yanada mustahkamlaydi.

Mehmondo'stlik va ochiqlik qadriyati qarindoshlik terminlarida *ochiq oila, saxiy xonadon* kabi iboralar orqali ifodalanadi. Mehmon sifatida qabul qilish, oilaviy ziyofat kabi an'analar bu qadriyatning amaliy namoyon bo'lishidir. o'zbek oilasida qarindoshlar va mehmonlarni kutib olish madaniyati mehmondo'stlik qadriyatining chuqur ildiz otganligidan dalolat beradi. Bu qadriyat o'zbek jamiyatida individuallikning oilaviylik bilan chambarchas bog'langanligini bildiradi. *Fahrli oila, ibratli oila* kabi iboralar ijtimoiy mavqe va obro'ning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu qadriyat o'zbek oilasida a'zolarining xatti-harakatlari barcha oila a'zolarining obro'siga ta'sir qilishi g'oyasida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz va o'zbek tillarida qarindoshlik terminlari orqali ifodalangan milliy-madaniy qadriyatlar taqqoslash orqali har ikkala xalqning dunyoqarashdagi tubdan farqlarni aniqlash mumkin. Bu farqlar nafaqat til tuzilishida, balki ijtimoiy tashkilot, oilaviy munosabatlar, madaniy an'analar va qadriyatlar tizimida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Umuman olganda, o'zbek tilida qarindoshlik terminlari orqali ifodalangan umuminsoniy qadriyatlar o'zining boy tarkibi bilan ajralib turadi. Bu qadriyatlar bir tomondan universal insoniy ehtiyojlarni qondirsa, ikkinchi tomondan milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Азимова А. Тил ва қадриятлар уйғунлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 140 б.
2. Begmatov E. Xozirgi uzbek adabiy tilining leksik katlamlari. – T.: Fan, 1985. – 200 b.
3. Маджидова Р.У. Антропоцентрические пословицы: семантика и лингвостатистика (на материале узбекского и русского языков). – Ташкент: Bookmany print, 2024. – 126 с.
4. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 109 b.
5. Mirtojiev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 288 b.
6. Rahimov G'. Ingliz tili O'zbekistonda: sotsiolingvistik va pragmatik ko'rsatkichlar. – Toshkent: Tamaddun, 2017. – 268 b.